HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MILLIY MATBUOT VA TARIXIY ONGNING SHAKLLANISHI

G‘aybulloyeva Charos O‘rinboy qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Tarix ta’lim yo‘nalishi talabasi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24478990

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda milliy matbuotning shakllanishi va uning tarixiy ong rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Samarqand”, “Oyina” va “Sadoyi Turkiston” kabi nashrlarning ma’rifiy, ijtimoiy – siyosiy va madaniy faoliyati yoritiladi. Shuningdek, milliy matbuotning tarixiy xotira, milliy o‘zlik va ijtimoiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: Turkiston, milliy matbuot, jadidchilik, tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, ma’rifat, “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Oyina”, “Sadoyi Turkiston”, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov.

NATIONAL PRESS AND THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN TURKESTAN AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract: This article analyzes the formation of the national press in Turkestan at the beginning of the 20th century and its influence on the development of historical consciousness. It examines the educational, socio-political, and cultural activities of publications such as Taraqqiy, Khurshid, Shuhrat, Samarkand, Oyina, and Sadoyi Turkiston. The article also highlights the role of the national press in shaping historical memory, national identity, and social thought
Keywords: Turkestan, national press, Jadidism, historical consciousness, historical memory, national identity, enlightenment, Taraqqiy, Samarkand, Oyina, Sadoyi Turkiston, Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРЕССА И ФОРМИРОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация: В данной статье анализируется становление национальной печати в Туркестане в начале XX века и её влияние на развитие исторического сознания. Освещается просветительская, общественно-политическая и культурная деятельность таких изданий, как «Тараккий», «Хуршид», «Шухрат», «Самарканд», «Ойина» и «Садои Туркистон». Также раскрывается роль национальной печати в формировании исторической памяти, национальной идентичности и общественной мысли.
Ключевые слова: Туркестан, национальная печать, джадидизм, историческое сознание, историческая память, национальная идентичность, просвещение, «Тараккий», «Самарканд», «Ойина», «Садои Туркистон», Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Мунавваркори Абдурашидханов.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy – siyosiy hayotida ham bir qancha o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Jumladan, Rossiya imperiyasining Turkiston hududidagi mustamlakachilik boshqaruvi, iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi, yangi aloqa va kommunikatsiya vositalarining paydo bo‘lishi hamda Rossiya shuningdek, boshqa musulmon mamlakatlari bilan intellektual aloqalarning kuchayishi mahalliy ziyolilar oldida yangi tarixiy vazifalarni qo‘ydi. Ayniqsa, 1905 – yilgi Rossiya inqilobidan keyingi nisbiy matbuot erkinligi Turkistonda yangi turdagi mahalliy nashrlarning paydo bo‘lishiga imkon yaratdi.[1] Bu davrda shakllangan jadidchilik harakati dastlab ta’lim va ma’rifatni isloh qilish masalasini ilgari surgan bo‘lsa – da, vaqtlar o‘tishi bilan uning faoliyat doirasi matbuot, adabiyot, teatr, tarix, siyosiy fikr va milliy o‘zlik masalalarini ham o‘z ichiga qamrab oldi. Jadidlar maktab, kitob va matbuotni jamiyatni yangilashning o‘zaro bog‘langan vositalari sifatida ko‘rdilar. Shu jihatdan milliy matbuotning tarixiy ahamiyati faqat gazetalar soni yoki ularning nashr etilgan sanalari bilan belgilanmaydi, balki uning muhim jihati — jamiyat a’zolarining o‘z jamiyati, o‘tmishi, buguni va kelajagi haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirishida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy ong — inson yoki jamiyatning o‘tmishni anglash, tarixiy voqealarga baho berish va ularni hozirgi hamda kelajak bilan bog‘lash jarayoni. XX asr boshlarida Turkiston matbuoti aynan mana shu jarayonning muhim vositalaridan biriga aylandi. Turkistondagi jadidchilik va milliy matbuot tarixi xorijiy va mahalliy tarixshunoslikda turli jihatlardan o‘rganilgan. Jumladan, chet el yozuvchilarining asari jadidchilikni faqat siyosiy harakat sifatida emas, balki bilim, ta’lim, matbuot, adabiyot va ijtimoiy islohot bilan bog‘liq keng madaniy jarayon sifatida tahlil qiladi.[1] O‘zbek tarixshunosligida B. Qosimov, D. Alimova, U. Dolimov, R. Sharipov, A. Jalolov, H. O‘zganboyev va boshqa tadqiqotchilarning ishlari jadidchilik, ma’rifatparvarlik, matbuot va milliy uyg‘onish jarayonlarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.[2]

XX asr boshlarida Turkistonda milliy matbuotning vujudga kelishi tasodifiy hodisa emas edi. Bu jarayon XIX asr oxirida shakllangan yangi ijtimoiy va madaniy muhitning natijasi bo‘ldi. Rossiya imperiyasining Turkistonni siyosiy va iqtisodiy jihatdan o‘z nazoratiga olishi bilan birgalikda, mintaqada yangi boshqaruv tizimi, bosmaxona, pochta, telegraf, savdo va aloqa tarmoqlari rivojlandi. Bu jarayonlar mahalliy jamiyatning tashqi dunyo bilan aloqalarini kengaytirdi. Bundan tashqari, Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon xalqlari orasida ham islohotchilik g‘oyalari rivojlandi. Ismoil Gaspirali tomonidan 1883-yildan nashr etilgan “Tarjimon” gazetasi Rossiya musulmonlari orasida yangi fikrlarning tarqalishida muhim rol o‘ynadi. Turkiston jadidlari ham Qrim – tatar, ozarbayjon, Usmonli va boshqa musulmon mamlakatlari matbuotidan ta’sirlandilar.[3]

1905 – yilgi Rossiya inqilobidan keyingi matbuot sharoitining nisbatan yumshashi Turkiston jadidlariga o‘z nashrlarini yaratish imkonini berdi.[3

“Taraqqiy”, “Xurshid” va “Shuhrat”: yangi ijtimoiy fikrning dastlabki minbari

Turkiston jadid matbuotining dastlabki namunalari sifatida 1906 – yilda Toshkentda nashr etilgan “Taraqqiy” va “Xurshid”, 1907 – yilda nashr etilgan “Shuhrat”ni ko‘rsatish mumkin.[3] “Taraqqiy” nashri Ismoil Obidiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, unda ijtimoiy taraqqiyot, ma’rifat, jamiyat muammolari va islohot masalalari ilgari surildi. “Xurshid” Munavvarqori Abdurashidxonov muharrirligi bilan bog‘liq bo‘lib, yangi maktab, ilm – ma’rifat va ijtimoiy yangilanish g‘oyalarini targ‘ib qildi. “Shuhrat” esa Abdulla Avloniy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning sahifalarida ma’rifat, axloq, jamiyat va milliy taraqqiyot masalalariga e’tibor qaratildi.[4]

Jadid matbuotining eng muhim asosiy vazifalaridan biri ma’rifatni ommalashtirish edi. Jadidlar jamiyatdagi qoloqlikning sabablarini, eng avvalo, jaholat va savodsizlik bilan bog‘ladilar. Shu sababli

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ham maktab, darslik, savodxonlik, tarix, geografiya, tabiiy fanlar va zamonaviy bilimlar masalasi matbuot sahifalarida muntazam muhokama qilindi.[5] Bu jarayon tarixiy ong uchun juda ham muhim edi. Chunki tarixiy ongning shakllanishi faqat tarixiy sanalarni bilishdan iborat emas. U insonning o‘z jamiyati va uning taraqqiyot darajasini boshqa jamiyatlar bilan taqqoslay olish qobiliyatini ham anglatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining eng faol matbuot namoyandalaridan biri bo‘ldi. 1913 – yilda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali uning faoliyati bilan bog‘liq holda Turkiston matbuoti tarixida muhim o‘rin egalladi.[6] Behbudiy matbuotni turli bilimlarni jamiyatga yetkazuvchi vosita deb tushungan. “Oyina” jurnalida adabiyot, tarix, fan, din, geografiya, siyosat va madaniyat masalalariga murojaat qilindi. Behbudiy jurnal mazmunini faqat tezkor siyosiy xabarlarga bog‘lab qo‘yishdan ko‘ra, ilmiy, tarixiy, adabiy va ma’rifiy materiallar bilan boyitishni maqsad qilgan. Jurnalning o‘z sahifalarida ham uning mazmuni ilmiy – tarixiy va ma’rifiy yo‘nalishda bo‘lishi kerakligi ta’kidlangan.[7] Bu yondashuv tarixiy ongning shakllanishi nuqtayi nazaridan muhimdir.

“Sadoyi Turkiston” va ijtimoiy – siyosiy ong 1914 – yilda nashr etila boshlagan “Sadoyi Turkiston” gazetasi Turkiston jadid matbuotining muhim namunasidir.[3] Gazeta atrofida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy va boshqa ziyolilar faoliyat olib bordilar. Nashrda ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy va madaniy masalalar muhokama qilindi. “Sadoyi Turkiston”ning ahamiyati shundaki, unda jamiyat hayotidagi muammolarni faqat tasvirlash emas, balki ularga munosabat bildirish, sabablarini tahlil qilish va yechim izlashga intilish mavjud edi.[8]

XX asr boshlarida Turkistonda milliy matbuotning vujudga kelishi mintaqaning ijtimoiy, madaniy va intellektual tarixida muhim burilishlardan biri bo‘ldi. Umuman olganda, XX asr boshlarida Turkiston milliy matbuoti jamiyatni axborot bilan ta’minlovchi vositadan ko‘ra kengroq tarixiy hodisa bo‘lib, u ma’rifat, milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ijtimoiy tafakkurning shakllanishida muhim vazifasini bajardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 335 p
2. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b.
3. Alimova, D.A. Jadidchilik harakati: mafkurasi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: Akademiya, 2000.
4. A. Avloniy. “Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi”. Turkiston matbuaotiga oid materiallar.
5. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 344 b.
6. “Samarqand” gazetasi. – Samarqand: 1913 – 1914.
7. M. Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: 2006: Oyina jurnali
8. “Sadoyi Turkiston” gazetasi. Toshkent. – 1914 – 1917